

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019. K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ESHTURSUNOV DAVRON ABDISAMATOVICH

POLIMERLAR SIRTIDA NANOO‘LCHAMDAGI METALL
ZARRACHALARINI HOSIL QILISH VA ULARNING XOSSALARI

02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar

KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent-2025

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации на соискание ученой степени
доктора философии (PhD) по химическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
chemical sciences**

Eshtursunov Davron Abdisamatovich

Polimerlar sirtida nanoo‘lchamdagi metall zarrachalarini hosil qilish va ularning xossalari..... 5

Эштурсунов Даврон Абдисаматович

Формирование наноразмерных металлических частиц на поверхности полимеров и их свойства 21

Eshtursunov Davron Abdisamatovich

Formation of nanoscale metal particles on polymer surfaces and their properties 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 44

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/30.12.2019. K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ESHTURSUNOV DAVRON ABDISAMATOVICH

**POLIMER SIRTIDA NANOO‘LCHAMDAGI METALL
ZARRACHALARINI HOSIL QILISH VA ULARNING XOSSALARI**

02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2024.1.PhD/K726 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik.-kimyo.nuu.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Bekchanov Davronbek Jumazarovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yunusov Haydar Ergashovich
texnika fanlari doktori, professor

Ishankulov Alisher Farmonovich
kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Umumiy va noorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025 yil 21-oktabr soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871)246-07-88; faks: (+99824)246-53-21; 246-02-24, e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (~~161~~ raqami bilan ro'yxatga olingan Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-67-71; 277-12-24; faks: (+99871) 246-07-88; 246-02-24. e-mail: rector@nuu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil « ____ » oktabrdagi 22-raqamli reestr bayonnomasi).



Z.A. Smanova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash
raisi k.f.d., professor

N.X. Qutlimurotova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash
ilmiy kotibi k.f.d., professor

M.G. Muxamediev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash
ilmiy seminar raisi k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, polimerlar asosidagi materiallar kimyosi va fizikasi sohalarida erishilayotgan ilmiy yutuqlar sanoat, ekologiya, energetika hamda biotibbiyot sohalarida yangi avlod funksional materiallarini yaratish imkonini bermoqda. Xususan, polimer materiallar yuzasida metall oksid nanozarrachalarini yo'naltirilgan sintezi asosida nanokompozitlar yaratish sohasida olib borilgan izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, polimer materiallar yuzasida kerakli o'lcham va shakldagi metall oksid zarrachalarini hosil qilish, ularning bir xil tarqalishini boshqarish va polimer fazasi bilan o'zaro ta'sir mexanizmini chuqur o'rganish orqali multifunksional xususiyatga ega nanokompozitlar olish imkoniyati yaratilmoqda. Bunday nanokompozit tizimlar asosida suv muhitini organik ifloslantiruvchilardan fotokatalitik usulda tozalash, tibbiyotda antibakterial vositalar yaratish, biologik barqaror va qayta ishlanadigan ekologik materiallar ishlab chiqishda keng amaliy imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bois, bunday nanokompozitlarning yuqori barqarorligi, energiya samaradorligi va qayta ishlanish imkoniyati ularni sanoat va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida keng qo'llashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda sintetik polimerlarni modifikatsiyalab, tarkibida turli funksional xususiyatlar saqlovchi multifunksional polimer-metall nanokompozitlarni sintez qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar izchil kengayib bormoqda. Xususan, vinil monomer asosidagi polimerlarning strukturasi nukleofil almashinish, kovalent bog'lanish yoki kimyoviy modifikatsiya orqali faol markazlarga aylantirish va ularning yuzasiga metall oksid nanozarrachalarini "cho'ktirish" usuli orqali multifunksional (optik, katalitik, biologik faol) kompozit tizimlar yaratilmoqda. Bunday nanokompozitlarni yaratilishi polimer matritsasining kimyoviy va termik barqarorligini oshirishi, metall zarrachalar dispersiyasini yaxshilashi hamda fotokatalitik reaksiyalardagi faollikni kuchaytirishi bilan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ularning kimyoviy tarkibi va tuzilishini chuqur o'rganish uchun zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalanish orqali sintez mexanizmini aniqlash va optimal parametrlarni belgilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuv polimer-nanokompozitlarning molekulyar darajadagi o'zaro ta'sirlarini tushunish, ularning energetik barqarorligini baholash hamda yangi avlod ekologik, biomaslashuvchan va energetik jihatdan samarali materiallarni ishlab chiqishda nazariy asos yaratib beradi. Shu bois, ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda to'qimachilik, farmatsevtika sanoat tarmoqlaridan ajralib chiqayotgan chiqindi suvlardagi organik ifloslantiruvchi moddalarini ekologik xavfsiz texnologiyalar yordamida tozalash bugungi kunda eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni taraqqiyot strategiyasida"¹ chiqindi resurslarni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

qayta ishlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu yorada, yurtimizda mahalliy xomashyolar asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan, selektivligi yuqori, qayta ishlanadigan, arzon va ekologik xavfsiz funksional materiallar yaratishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son Farmonida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. "Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon ilmiy adabiyotlarida polivinilxlorid (PVX) asosidagi funksional materiallar yaratish bo'yicha izchil tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, S. Marian, M.Herrero, P. Jia, A.Rodionova, M.Wang, S. Allan, H. Khdir, A. Roudman, W.Chaisriratanakul, P.Zuo, R. Wang, J.Verdu, H. Reinecke, J. Koo, Z. Shifrina, A. Ghazzy, M. Bustamante-Torres, T. Druffel, E. Morici, A. Kockmann, Z. Wang, Sh. Lawaniya, J. Zhang, K. Günay, T.Netke kabi tadqiqotchilar PVXning kimyoviy modifikatsiyasi orqali uning fizik-kimyoviy va strukturaviy xossalarini yaxshilash hamda amaliy qo'llanilishini kengaytirish ustida ishlaganlar. Ularda, asosan, PVX ning nukleofil almashinish reaksiyalari, plastifikatsiyalash, sirt modifikatsiyasi va metall va metal oksidi kristallari bilan imobillashuvi orqali turli kompozit sistemalar yaratish bo'yicha samarali yondashuvlar ilgari surilgan.

O'zbekiston Respublikasi olimlari – U.N. Musaev, M.A. Askarov, S.Sh. Rashidova, X.T. Sharipov, M.G. Muxamediev, T.M. Babaev, T.X. Raximov, O.N. Ro'zimurodov, D.J. Bekchanov, D.A. Gafurova, N.T. Kattaev va boshqalar tomonidan ham polimer kimyosi, funksional polimerlar va ularning nanokompozitlari, sorbentlar va ionitlar sintezi sohasida muhim tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, PVXning amin guruh tutgan reagentlar bilan modifikatsiyasi, kation/anion almashinuvchi materiallar sintezi, ularning sorbsion va kompleks hosil qiluvchi xossalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan.

Biroq mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, granulalangan sanoat PVX ni nukleofil modifikatorlar bilan funksional guruhlarga ega shaklga keltirish, u asosida nanoo'lchamli metall oksid zarrachalarini biriktirib, yuqori sirt faolligi va fotokatalitik samaradorlikka ega funksional polimer nanokompozit materiallar sintezi hamda ularning tuzilish–xossa bog'liqligini chuqur o'rganish bo'yicha

tizimli ilmiy izlanishlar yetarli darajada olib borilmagan. Shu bois, ushbu dissertatsiya ishida polivinilxlorid asosida funksional polimer asosida nanokompozitlar sintezi, ularning strukturaviy, morfologik hamda fotokimyoviy xossalarini kompleks tahlil qilish orqali mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga yechim taklif etish maqsad qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq AL-552101242 "Polivinilxlorid asosida amino va gidroksil guruhlar tutgan yangi ionitlarning olinishi va oqava suvlarini Cr(VI) ionlaridan tozalashda qo'llanilishi" (2022-2025 yy.) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sifatida polimerlar sirtida nanoo'lchamdagi metall zarrachalarini hosil qilish va ularning xossalarini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

magnit xossali multifunksional $Fe_3O_4/PPE-2$ polimer nanokompozit material sintez qilishning maqbul sharoitlarini aniqlash;

funksional $CuO/PPE-2$ polimer nanokompozit material sintez qilish qonuniyatlarini tadqiq qilish;

funksional $Fe_3O_4/PPE-2$ va $CuO/PPE-2$ polimer nanokompozit materiallarning tarkibi, tuzilishi va struktur morfologiyasini identifikatsiyalash;

multifunksional $Fe_3O_4/PPE-2$ va $CuO/PPE-2$ polimer nanokompozit materiallarning zararli organik birikmalarga nisbatan fotokatalitik xossalarini tekshirish;

funksional $CuO/PPE-2$ polimer nanokompozit materialning antibakterial samaradorligini aniqlash;

yangi funksional polimer nanokompozit materiallarning qo'llanilish sohalarini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida mahalliy xomashyo polivinilxlorid, modifikatsiyalovchi reagent sifatida mochevina, funksional nanokompozit materiallar yaratish uchun metall tuzlari (Fe^{2+} , Fe^{3+} , Cu^{2+}), shuningdek, adsorbsion-fotokatalitik, antimikrob tahlillar uchun tekstil sanoati bo'yoq ifloslantiruvchilari, farmasevtika sanoati preparatlari va patogen mikroorganizmlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida polivinilxlorid (PVX) ni karbamid bilan modifikatsiyasi asosida olingan anion almashinuvchi materila (PPE-2) hamda ular asosida temir va mis oksidlarini cho'ktirish usuli yordamida sintez qilingan $Fe_3O_4/PPE-2$ va $CuO/PPE-2$ funksional nanokompozitlar tanlab olindi. Mazkur funksional nanokompozitlarning strukturaviy-morfologik va fizik-kimyoviy xossalari, fotokatalitik faoliyat mexanizmlari hamda antibakterial samaradorligi ushbu ilmiy tadqiqotning asosiy yo'nalishini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida zamonaviy nazariy va eksperimental kimyoviy tahlil usullari qo'llanildi. Modifikatsiyalangan polimer va hosil bo'lgan nanokompozit materiallarning tuzilishi, tarkibi hamda morfologik xossalarini aniqlash uchun FTIR, Raman, SEM, AFM, EDX, XRD, XRF, DLS va MASS-spektrometriya usullari ishlatildi. Termik barqarorlik va fazaviy o'zgarishlarni baholashda TG va DSC analizlari, optik va elektron xossalarni

o'rganishda UV-Vis va PL spektroskopiya metodlari qo'llanildi. Fotokatalitik samaradorlik va kinetik parametrlarni aniqlashda fotoreaktor sharoitida Langmuir-Hinshelwood va psevdobirinchi tartibli kinetik modellardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bora polivinilxlorid asosidagi PPE-2 anion almashinuvchi material sirtida Fe_3O_4 va CuO nanokristallari cho'ktirish usuli asosida gidrotermal sharoitda sintez qilingan;

ilk bora $180\text{ }^\circ\text{C}$ da 8 soat davomida sintez qilingan $\text{Fe}_3\text{O}_4/\text{PPE-2}$ nanokompozit material yordamida tekstil sanoat chiqindi suvlari tarkibida mavjud bo'lgan zaharli organik bo'yog – Rodamin B (20 mg/10 ml eritma) quyosh nuri ta'sirida, $\text{pH}=6.5\text{--}7.5$ sharoitda 180 daqiqada 98,2% fotokatalitik parchalanishga uchradi. Fotokatalitik jarayonning kinetik tahlili natijasida reaksiyaning tezlik doimiysi $0,027\text{ min}^{-1}$ ekanligi aniqlangan;

ilk bora sintez qilingan $\text{Fe}_3\text{O}_4/\text{PPE-2}$ va $\text{CuO}/\text{PPE-2}$ funksional polimer nanokompozit materiallar sirtidagi metall oksid nanokristallarning morfologiyasi ularning fotokatalitik va optik xossalarga bevosita ta'sir ko'rsatishi eksperimental ravishda aniqlangan;

ilk bora $\text{CuO}/\text{PPE-2}$ funksional polimer nanokompozit material patogen bakteriya shtammlari *E. coli*, *P. aeruginosa* kabi klinik muhim, antibiotiklarga chidamli bakterial shtammlarga nisbatan $36\text{ }^\circ\text{C}$, 24 soat davomida samarali bakteritsid ta'sir ko'rsatgani eksperimental isbotlangan;

polimer tarkibidagi ionogen va kompleks bog'lovchi guruhlar ishtirokida sintez qilingan nanokompozitlar, sof metall oksid nanokristallarga nisbatan yuqori disperslik, strukturaviy barqarorlik, fotokatalitik samaradorlik va antibakterial xossalarga ega ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

polivinilxlorid asosida modifikatsiyalangan funksional polimer material sirtida Fe_3O_4 va CuO nanozarrachalarini hosil qilish uchun cho'ktirish usuli asosida gidrotermal sharoitda sintez texnologiyasi ishlab chiqildi. $\text{Fe}_3\text{O}_4/\text{PPE-2}$ va $\text{CuO}/\text{PPE-2}$ sintezi jarayonida muhitning pH qiymati ($\text{pH}=10$), kalsinatsiya harorati ($180\text{ }^\circ\text{C}$ va $150\text{ }^\circ\text{C}$), kalsinatsiya davomiyligi (8 va 10 soat), hamda quritish sharoiti ($80\text{ }^\circ\text{C}$ da 12 soat)ning nanokristallar hosil bo'lishiga ta'siri o'rganilgan, optimal sintez sharoitlari tanlab olingan;

ilk bora ion almashinuvchi polimerlar sirtida yashil kimyo tamoyillari asosida multifunksional xossaga ega nanokompozitlar sintez qilindi, ularning fotokatalitik va antibakterial xossalari o'rganildi. Olingan $\text{Fe}_3\text{O}_4/\text{PPE-2}$ nanokompozitining fotokatalitik faolligi Rodamin B organik bo'yog'iga nisbatan 98,2% fotodegradatsiya samaradorligi va $0,027\text{ min}^{-1}$ kinetik tezlikni ko'rsatdi. Shuningdek, $\text{CuO}/\text{PPE-2}$ nanokompozitning antibakterial xossalari *E. coli* va *P. aeruginosa* shtammlariga qarshi testdan o'tkazilib, yuqori mikroblarga qarshi faollik aniqlangan;

sintez qilingan $\text{Fe}_3\text{O}_4/\text{PPE-2}$ funksional polimer nanokompozit material "Gurlan Global Teks" MChJ oqava suvlarini tozalash inshootida sinovdan o'tkazildi. Fotokatalitik jarayon natijalarini baholashda Rodamin B organik bo'yog'ining degradatsiyasi kuzatildi va 98,2% samaradorlik bilan to'liq

parchalanish sodir bo'ldi. Yakuniy mahsulotlarni aniqlash maqsadida olingan namunalarda MASS-spektrometriya usuli yordamida tahlil qilindi hamda jarayon to'liq mineralizatsiya bilan tugab, asosiy yakuniy mahsulotlar sifatida CO₂ va H₂O hosil bo'lgani isbotlandi;

tadqiqot davomida ishlab chiqilgan arzon, samarali va ekologik xavfsiz nanokompozit sorbentlar va fotokatalizatorlar atrof-muhitni muhofaza qilish, ayniqsa chiqindi suvlardan farmasevtik preparatlar va bo'yoq ifloslantiruvchilarni zararsizlantirish uchun istiqbolli amaliy yechim sifatida tavsiya etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda olingan ilmiy natijalar zamonaviy yuqori informatsion fizik-kimyoviy tahlil usullari bilan ishonchli tarzda asoslangan. Funktsional polimer nanokompozitlarning tarkibi, tuzilishi, morfologiyasi va xossalari infraqizil (FTIR), Raman, UV-Vis, PL spektroskopiya, TG, DSC, XRD, EDX, SEM, AFM, MS kabi instrumental metodlar yordamida aniqlangan.

Fotokatalitik va ion almashinish jarayonlari Langmuir–Hinshelwood va psevdobirinchi tartibli kinetik modellar asosida nazariy va eksperimental tahlillar orqali matematik-statistik usullar bilan qayta ishlanib, ishonchli natijalar bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, geterogen sharoitda granula ko'rinishidagi ion almashinuvchi materiallar sirtida metal oksid nanozarrachalarini hosil qilishning maqbul sharoitlari aniqlash orqali olingan materiallarning xossalari tadqiq qilish yordamida fotokatalitik xossaga ega bo'lgan funktsional polimer materiallarni sintez qilish mumkinligini ko'rsatishdan iboratdir.

Ion almashinuvchi materiallar sirtida cho'ktirish usuli yordamida olingan metal oksid nanozarrachalarining o'rtacha o'lchami 50-100 nm oralig'ida bo'lib shunga mos ravishda ularning mikroanaloglari bilan solishtirilganda kattaroq o'ziga xos sirt yuzasiga ega bo'lishiga sabab bo'lib, bu sintez qilingan nanonamunalarni faolroq qiladi. Fotokatalitik faol material olish uchun funktsional polimerlar sirtida Fe₃O₄ va CuO nanozarrachalarini sintezini ishlab chiqishning arzon usullarini texnologik parametrlari aniqlandi. Yashil kimyo texnologiyasi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ushbu nanostrukturali yarimo'tkazgichli materiallar va ular asosidagi nanokompozitlar oqava suvlarni organik ifloslantiruvchi moddalardan tozalashda foydalanish uchun istiqbolli hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari quyidagi amaliy ahamiyatga ega: PPE-2 anion almashinuvchi material sintez qilingan funktsional polimer materiallar sanoat oqava suvlari tarkibidagi turli xil zaharli organik kimyoviy va biologik ifloslantiruvchi moddalardan ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilishda, ionitlarni utilizatsiya muammolarini bartaraf etishda: yaroqsiz ionitlar asosida arzon va qulay usulda fotokatalizator sintez qilish bilan izohlanadi. Fotokatalizatorni vakum va inert muhit talab qilmasdan funktsional polimer materiallar yordamida nanokompozitlarni olish sanoat miqyosida mahsulot ishlab chiqarishning texnologik sxemasini soddalashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Polivinilxlorid (PVX) asosida Fe₃O₄ va CuO zarrachalari bilan modifikatsiyalangan funktsional nanokompozitlarning

sintezi, morfologiyasi va fotokatalitik xossalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Fe₃O₄/PPE-2 funksional polimer nanokompozitning tarkibi, strukturasi, fotokatalitik faolligi va regeneratsion xossalarini tavsiflovchi ilmiy ma'lumotlardan xorijdagi 3 ta impakt-faktori yuqori ilmiy jurnallarda foydalanilgan (*Sustainability*, 2025, Vol. 17, No. 9, p. 4084 (Journal Impact Factor, IF 3.3); *Reactive and Functional Polymers*, 2025, Vol. 216, Article 106457 (Journal Impact Factor, IF 5.1); *Carbohydrate Polymer Technologies and Applications*, 2025, Vol. 6, Article 100835 (Journal Impact Factor, IF 5.4)). Natijada, ushbu nanokompozit fotokatalizator sifatida Rodamin B bo'yog'iga nisbatan degradatsiyasida yuqori samaradorlikka ega materiallar sifatida tavsiflangan hamda ekologik xavfsiz va qayta ishlanadigan funksional materiallar yaratishda ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan.

funksional polimer nanokompozit "Gurlan Global Teks" MChJ korxonasida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 21.04.2025 yildagi №03-03/1-03/3-3815-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu material korxonadan chiqadigan oqava suvlarni zararli moddalardan samarali tozalash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan 6 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola respublika, 4 ta (3 ta Scopus) maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyasi tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati, ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 sahifani tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi, ilmiy yangiligi va tadqiqot zarurati asoslab berilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi va uni amalga oshirish uchun belgilangan vazifalar aniqlashtirilgan, shuningdek, ilmiy ishning ob'ekti va predmeti aniq ko'rsatilgan. Ushbu tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ilmiy ishlar, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **"Funksional polimer materiallar asosida nanokompozitlar olish va ularning xossalari"** (adabiyotlar sharxi) deb nomlangan I bobida mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilingan. Funksional

Muallif dissertatsiya ishini bajarishda bergan ilmiy maslahatlari uchun kimyo fanlari doktori, professor M.G. Muxamedievga o'zining samimiy minnatdorchiligini bildiradi

polimerlarning gidroksil, karboksil, amino va tiol guruhlari ularning fizik, kimyoviy hamda biologik xossalarini belgilab berishi ko‘rsatildi. Ushbu guruhlar selektivlik, katalitik faollik, elektr va optik xususiyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekani ilmiy asoslandi. Polimerlarning nanozarrachalar bilan o‘zaro ta’siri ularning tuzilmasini modifikatsiyalash orqali yangi funksional polimer nanokompozitlar yaratish imkonini berishi qayd etildi. Nanokompozitlarni olishda qo‘llaniladigan zol-gel, yashil sintez, birgalikda cho‘ktirish va gidrotermal usullar tahlil qilinib, ularning afzalliklari va ekologik cheklovlari solishtirib ko‘rsatildi. Metall oksidli nanozarrachalar (TiO_2 , ZnO , Fe_3O_4 , CuO) asosida yaratilgan nanokompozitlarning mexanik, elektr, optik va katalitik xossalari yaxshilanishi aniqlangan. Shuningdek, bunday materiallarning sensor texnologiyalar, biomeditsina, energiya saqlash hamda kataliz sohalarida qo‘llanilish istiqbollari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, nanokompozitlarning ekologik muammolarni hal qilishdagi samaradorligi, xususan, suvni organik ifloslantiruvchilardan tozalashdagi ustunliklari ilmiy asosda isbotlangan.

Dissertatsiyaning **“Funksional polimer materiallar asosida nanokompozitlar olishning qonuniyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida, Polivinilxlorid (PVX) asosida sintez qilingan anion almashuvchi polimer material–PPE-2 tarkibiy tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalari o‘rganilgan. Ushbu polimer asosida sintez qilingan funksional polimerni temir oksidi (Fe_3O_4) va mis oksidi (CuO) nanozarrachalari bilan boyitilib nanokompozit materiallar sintezi va ularning hosil bo‘lish qonuniyatlari tadqiq qilingan.


Fe_3O_4 /PPE-2 magnit xossali polimer nanokompoziti birgalikda cho‘ktirish usuli bilan ikki bosqichda sintez qilindi: avval metall ionlarining polimer sirtiga adsorbsiyasi amalga oshirildi, keyin esa ishqoriy muhitda Fe_3O_4 zarrachalari cho‘ktirilib kristallantirildi. Nanokompozit material sirtidagi metal oksid nanozarrachasining o‘lchamiga haroratning ta’sirini bog‘liqligi [1-rasmda](#) ko‘rsatilgan.



1-rasm. Funksional polimer nanokompozit sirtida Fe_3O_4 nanozarrachasining o‘lchamiga haroratning ta’sirini bog‘liqligi

Fe_3O_4 /PPE-2 magnit xossali polimer nanokompozitini sintez qilishda optimal sharoit tanlab olindi: Fe^{2+} va Fe^{3+} tuzlari 1:2 nisbatda, $\text{pH} = 10,0$ va $T = 180^\circ\text{C}$ da 8 soat davomida olib borilgan jarayonda polimer sirtida bir tekis taqsimlangan, 5–25 nm o‘lchamdagi sterjen shakldagi va yuqori magnit faollikka ega Fe_3O_4 nanozarrachalari hosil bo‘lishi ta’minlandi ([2-rasm](#)). Natijada, anionit (PPE-2) va hosil bo‘lgan funksional polimer nanokompozit (Fe_3O_4 /PPE-2) namunalarning IQ va Raman spektroskopiyasi, SEM, EDX hamda XRD tahlillari orqali Fe_3O_4

nanozarrachalarining polimer matritsada bir tekis taqsimlangani, ularning kichik o'lchamli ekani va polimer sirtida Fe_3O_4 kristall fazasining mavjudligi tasdiqlandi.



2–rasm. (A) Funktsional polimer material tarkibidagi magnetit nanozarrachasining sinteziga Fe^{2+} va Fe^{3+} ionlarining nisbatini bog‘liqligi (B) magnetit nanozarrachasining hosil bo‘lishiga pH muhitning ta’siri


CuO/PPE-2 funksional polimer nanokompozit materialining sintez jarayonlari o‘rganildi. Nanokompozit ikki bosqichda sintez qilindi. Birinchi bosqichda PPE-2 polimer matritsasiga $\text{CuCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ eritmalaridan Cu^{2+} ionlari adsorbsiyalandi. Adsorbsiya jarayonining kinetikasi va izotermalari 293–313 K harorat oralig‘ida, turli vaqt davomida (2–10 soat) hamda turli konsentratsiyalarda (0,0125–0,1 mol/l) o‘rganildi. Natijada, eng yuqori adsorbsiya samaradorligi 313 K da, 0,1 mol/l konsentratsiyada va 10 soat davomida qayd etildi. Adsorbsiya sig‘imi 248 mg/g ni tashkil etib, bu sharoitlar keyingi bosqich sintez jarayonlari uchun optimal deb belgilandi. Ikkinchi bosqichda polimer sirtiga adsorbsiyalangan Cu^{2+} ionlari 1 mol/l NH_4OH eritmasi 60 °C da tomchilab qo‘shilib, pH 8–9 gacha oshirilganda $\text{Cu}(\text{OH})_2$ cho‘kmalari hosil bo‘ldi. Hosil bo‘lgan cho‘kma gidrotermal usulda turli harorat (110 °C, 130 °C va 150 °C) va vaqt (6,8 va 10 soat) sharoitlarida qayta ishlanib, natijada polimer matritsa yuzasida barqaror taqsimlangan CuO nanozarrachalari shakllandi.

Dissertatsiyaning “**Funksional polimer nanokompozitlarning fizik-kimyoviy xossalari**” deb nomlangan uchinchi bobida, $\text{Fe}_3\text{O}_4/\text{PPE-2}$, CuO/PPE-2 funksional polimer nanokompozitlarning kimyoviy tuzilishi, sirt morfologik xossalari va nanokompozitlarning organik bo‘yoqlarga (RhB, MB), antibiotiklarga (tetrasiklin, parasetamol) nisbatan fotokatalitik, patogen bakteriya shtammlariga nisbatan antibakterial xususiyatlari o‘rganildi.

$\text{Fe}_3\text{O}_4/\text{PPE-2}$ funksional polimer nanokompozit materialning IQ va Raman spektrlarini olishdan maqsad $\text{Fe}_3\text{O}_4/\text{PPE-2}$ funksional polimer nanokompozitida Fe_3O_4 zarrachalari bilan polimer matritsa o‘rtasidagi bog‘larni va funksional guruhlarini tabiati o‘zaro ta’sirlarni aniqlashda muhim o‘rin tutadi. IQ spektrlari PPE-2 polimerida $-\text{NH}$ guruhining valent tebranishlari 3340–3430 cm^{-1} da, biroz kengaygan maydonda va yuqori intensivlikda kuzatildi. Uning deformatsion tebranishlari 2925 cm^{-1} $-\text{CH}_2$ cho‘zilishiga, 1630–1665 cm^{-1} $-\text{C}=\text{N}$ guruhlariga, 1030–1150 cm^{-1} oralig‘i $-\text{C}-\text{N}$ va $-\text{C}-\text{O}$ tebranishlariga mos keladi. IQ spektrlari asosida $-\text{NH}$, $-\text{OH}$, $-\text{C}=\text{N}$ va $-\text{C}-\text{N}$ guruhlariga xos tebranishlarning siljishi hamda yangi $\text{Fe}-\text{O}$ tebranishlarining (580–620 cm^{-1}) paydo bo‘lishi Fe^{3+} ionlarining


aminoguruhlar bilan koordinatsion bog‘lar hosil qilganini ko‘rsatdi. Raman spektroskopiyasida esa Fe_3O_4 kristallariga xos A_{1g} (776 cm^{-1}) va T_{2g} (560 va 490 cm^{-1}) simmetrik rejimlariga mos tebranishlar qayd etilib, yuqori kristall darajada ekanligini tasdiqladi.

$\text{Fe}_3\text{O}_4/\text{PPE-2}$ funksional polimer nanokompozit materialning yorug‘lik yutilish xususiyatlari, optik faolligi va energiya bo‘shlig‘ining (band gap) miqdorini aniqlash maqsadida ultrabinafsha–ko‘rinadigan nurlanish (UV–Vis) spektroskopik tahlili o‘tkazildi. PPE-2 ning UV-Vis spektrida asosiy yutilish to‘lqin uzunliklari 370 nm da qayd etilgan bo‘lib, bu $\pi \rightarrow \pi^*$ elektron o‘tishlariga mos kelishi aniqlangan bo‘lsa, Fe_3O_4 zarrachalari qo‘shilgan nanokompozitlarda bu cho‘qqi $350\text{--}370\text{ nm}$ oralig‘iga siljishi va yutilish intensivligi ortishi kuzatildi. Ayniqsa FM180 namunasi 355 nm da maksimal yutilish cho‘qqisini ko‘rsatdi, bu esa sintez haroratining ortishi bilan nanozarrachalarning optik faolligi kuchayishini tasdiqlaydi. Ko‘rinadigan yorug‘lik sohasida FM160 va FM180 namunalarda $420\text{--}550\text{ nm}$ diapazonda yutilishning ortishi Fe_3O_4 ning magnitit fazasiga xos d–d o‘tishlar bilan bog‘liq bo‘lib, nanokompozitning ko‘rinadigan spektr sohasida ham faol ekanini ko‘rsatdi .



3-rasm. $\text{Fe}_3\text{O}_4/\text{PPE-2}$ funksional materialning UB spektri


Ta‘qiqlangan zona kengligi (band gap) qiymatlari PPE-2 uchun $1,78\text{ eV}$, FM140 uchun $2,1\text{ eV}$, FM160 uchun $1,918\text{ eV}$ va FM180 uchun $1,902\text{ eV}$ ni tashkil etdi (3-rasm). FM180 namunasi eng kichik band gapga ega bo‘lib, elektron-kovak juftlarining ajralishi osonlashgani va fotokatalitik jarayonlarda yuqori samaradorlikka erishishi qayd etildi. $\text{Fe}_3\text{O}_4/\text{PPE-2}$ funksional materialning optoelektron xususiyatlarini baholash maqsadida fotolyuminessensiya (PL) spektroskopik tahlili o‘tkazildi. PL usuli nanokompozitlarda fotogeneratsiyalangan elektron–kovak juftlarining rekombinatsiya tezligi va yorug‘lik yutilish samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. PPE-2 polimerining PL spektrida $443\text{--}520\text{ nm}$ diapazonda keng nurlanish chiziqlari qayd etildi (4-rasm). Bu nurlanish asosan polimer matritsada hosil bo‘lgan eksitonlarning rekombinatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, materialning past darajadagi fotoyutilish xususiyatlarini tasdiqlaydi. Fe_3O_4 zarrachalari kiritilgan nanokompozitlarda PL intensivligining pasayishi kuzatildi. FM140 namunasi PPE-2 ga nisbatan biroz pastroq PL intensivligini ko‘rsatgan bo‘lsa, FM160 va ayniqsa FM180 namunalarda bu pasayish yanada kuchli bo‘ldi. FM180 namunada PL chiziqlarining eng past amplitudada qayd etilishi kristall Fe_3O_4 zarrachalari elektron–kovak juftliklarining rekombinatsiyasini samarali ravishda bostirganidan dalolat beradi.



4-rasm. PPE-2, Fe₃O₄ va Fe₃O₄/PPE-2 nanokompozitlarining fotolyuminescent (PL) spektrlari

Shunday qilib, Fe₃O₄/PPE-2 nanokompozitlari, xususan FM180 namunasi, samarali yorug‘lik yutilishi, kichik band gap va past rekombinatsiya tezligi bilan ajralib turib, yuqori fotokatalitik faollikka ega ekani isbotlandi.

Fe₃O₄/PPE-2 funksional polimer nanokompozitining sirt morfologiyasi va element tarkibini o‘rganish maqsadida SEM va EDX tahlillari o‘tkazildi. Tahlil qilinayotgan namunalar 140°C 4 soat (FM140), 160°C 6 soat (FM160) va 180°C 8 soat (FM180)da gidrotermal usul bilan sintezi natijasida zarrachalarning o‘lchami va shakli sezilarli darajada farq qildi.




5-rasm. Turli harorat va vaqtlar davomida sintez qilingan Fe₃O₄/PPE-2 funksional polimer nanokompozitning SEM mikrografiyalari: (a) FM140, (b) FM160 va (c) FM180, Fe₃O₄/PPE-2 funksional polimer nanokompozitning EDS analizi va elementlarni tarqalish xaritasi

SEM mikrografiyalarida FM140 namunada 200–400 nm nanosferik, FM160 da 50–200 nm nanokubik, FM180 da esa 5–25 nm nanosterjen Fe₃O₄ zarrachalari qayd etildi (5-rasm a,b,c). Harorat ortishi bilan zarrachalar kichrayib, ularning disperslanishi ortgani va FM180 namunada aglomeratsiyalangan holda barqaror taqsimlangani aniqlandi. Zarrachalar orasidagi interfeys zonalar polimerning

aminoguruhleri bilan Fe_3O_4 zarrachalari o'rtasida elektrostatik va donor-akseptor o'zaro ta'sirlarni tasdiqladi.

EDX tahlili FM180 namunada Fe elementining miqdori 5,9 % bilan mavjudligini ko'rsatdi. Elementlarning tarqalish xaritasi Fe va N elementlarining bir tekis taqsimlanganini aniqladi, bu esa PPE-2 matritsasi bilan Fe_3O_4 zarrachalari o'rtasida kuchli elektrostatik va koordinatsion bog'lanishlarning shakllanganini bildiradi. Ushbu natijalar gidrotermal sintez usulining optimal tanlanganligini va nanozarrachalarning polimer matritsaga samarali integratsiyalanganligini tasdiqlaydi (5-rasm C,D).

Fe_3O_4 /PPE-2 funksional polimer nanokompozitlarining kristallanish darajasi, fazaviy tuzilishi va zarracha o'lchamlarini aniqlash maqsadida rentgen difraksiyon (XRD) tahlili o'tkazildi. XRD usuli nanomateriallarning kristall fazalarini, ularning struktura tartibligini hamda Debye–Scherrer tenglamasi yordamida zarracha o'lchamlarini baholash imkonini berdi (6-rasm).




Tadqiq qilingan namunalarda (FM140, FM160, FM180) difraksiyon spektrlarda intensiv va aniq piklar bilan ajralib turib, Fe_3O_4 kristallarining muvaffaqiyatli hosil bo'lganini tasdiqladi. Xususan, FM140 namunasida $2\theta = 27.25^\circ$, 45.25° va 57.28° burchaklarda joylashgan piklar Fe_3O_4 kristall fazasiga (JCPDS 85-1436) mos ravishda (220), (311) va (511) tekisliklarga to'g'ri keladi. FM160 namunada esa $2\theta = 30.3^\circ$, 35.6° , 43.28° , 53.6° , 57.18° va 62.8° dagi difraksiyon cho'qqilar mos ravishda Fe_3O_4 ning (220), (311), (400), (422), (511) va (440) kristall tekisliklariga to'g'ri keladi. FM180 namunasi eng yuqori kristall struktura ko'rsatgan bo'lib, unda $2\theta = 18.51^\circ$ dan 94.9° gacha bo'lgan intervalda (111), (220), (311), (400), (422), (511), (622), (731) va (800) tekisliklarga mos 10 dan ortiq intensiv piklar qayd etildi. Debye–Scherrer tenglamasi asosida hisoblangan zarracha o'lchamlari FM140 namunada 48 nm, FM160 namunada 38 nm va FM180 namunada 18 nm ni tashkil etdi. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, sintez harorati ortgan sari Fe_3O_4 zarrachalari kichiklashib, ularning disperslanish darajasi ortadi, bu o'z navbatida zarrachalarning sirt maydonini ortishiga olib kelgan.

Fe_3O_4 /PPE-2 funksional polimer nanokompozit materialining sirt maydoni, g'ovak hajmi va diametri kabi parametrlari azot gazining (N_2) adsorbsiyasi usuli yordamida o'rganildi. BET va BJH modellari asosidagi hisob-kitob natijalariga ko'ra, sintez jarayonidagi haroratning ortishi bilan nanokompozitning sirt maydoni $28.48 \text{ m}^2/\text{g}$ gacha ortdi, g'ovak diametri esa 13–22 nm oralig'ida bo'lib, bu mezog'ovakli struktura shakllanganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, FM180 namunasi keng

sirt maydoni, yuqori g'ovaklik darajasi va H4-turdagi gisterezis halqasi bilan ajralib turadi. Ushbu morfologik xususiyatlar ifloslantiruvchi molekulalarning nanokompozit ichiga oson kirib borishini, samarali diffuziyani va natijada yuqori fotokatalitik faollikni ta'minlaydi.


